

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>R.S.Shodiyeva</b>	
Ijod va aqliy taraqqiyot muammosining sharq mutafakkirlari asarlaridagi talqini .....	424
<b>M.G'.Ismoilov</b>	
O'smirlarda familistik kompetensiyasini rivojlantirishning tamoyillari.....	429
<b>N.X.Raxmankulova</b>	
O'quvchilar tarbiyasini shakllantirishda ota-onalarga pedagogik bilim berish tizimining ahamiyati .....	433
<b>M.Saminjonov</b>	
Rasmiy-siyosiy qasamlar .....	439
<b>A.A.Hakimov</b>	
1358-1370 yillarda movarounnahrda kechgan hokimiyat uchun kurash jarayonlarining tarixiy manbalarda yoritilishi .....	444
<b>Sh.T.Abbosova</b>	
Yangi O'zbekiston taraqqiyoti bosqichida milliy g'oya barqarorlik kafolati .....	448
<b>A.A.Parmonov</b>	
Jismoniy madaniyat ta'limi sohasidagi mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirishda aksiologik yondashuv asosida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishning o'rni va ahamiyati.....	451
<b>S.M.Abdullayev</b>	
Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati .....	456
<b>S.M.Ro'zimurodov</b>	
Axloqiy-estetik qadriyatlarni shakllanishida oilaviy marosimlarning o'rni.....	460
<b>M.A.Мирзарахимов</b>	
Организация клиент-серверной технологической среды в образовании: анализ влияния и перспективы развития.....	464
<b>Z.H.Ubaydullayeva</b>	
Hissiyot ifodalovchi noverbal vositalarning lingvokulturologik tahlili .....	467
<b>J.Xamroqulov</b>	
Tyutorlar faoliyatini takomillashtirish asosida talabalarning ma'naviy-ahloqiy kompetentligi rivojlantirish.....	471
<b>N.O.Yunusaliyeva</b>	
O'quvchilarda ijtimoiy-axloqiy ideal haqidagi tasavvurlarini rivojlantirishning mazmun-mohiyati ..	475
<b>N.I.Suleymanova</b>	
Ijtimoiy fan darslarida abu ali ibn sino yozgan falsafiy qissalaridan foydalanishning tarbiyaviy ahamiyati .....	481
<b>Y.V.Lutfullina</b>	
Ta'lim jarayonida tarbiya usullarini to'g'ri tanlashning ahamiyati.....	486
<b>J.I.Xomidjonov, E.X.Bozorob</b>	
Tibbiyotda (klinikada) tovush yordamidagi usullar bilan tekshirishni "Swot-Tahlil" metod asosida o'qitish .....	490
<b>D.T.Tursunova</b>	
Ijtimoiy faollik-talaba xotin-qizlar ijtimoiy ongini shakllantirishning ustuvor tamoyili va muhim omili sifatida .....	497
<b>S.A.Sharipova</b>	
Internet muloqoti yangi til hodisi sifatida.....	500
<b>K.I.Марайимова</b>	
Использование инновационных форм экскурсии в повышении социокультурной компетентности будущих учителей.....	506
<b>B.B.Djalalov, K.P.Uzakov</b>	
Ta'limning uzluksizligi mutaxassisning kasbiy kompetensiya darajasini oshirish omili sifatida.....	512
<b>M.K.Saliyeva, R.F.Talipov, O.E.Ziyadullayev, S.I.Tirkasheva, L.Q.Ablaqulov</b>	
Ayrim geteroatomli aldehydlarni $Inbr_3/Et_3n/Et_2o$ katalitik sistemasida alkinillash jarayoni.....	519
<b>A.Sh.Raximov</b>	
Ichki yonuv dvigatellarining umumiy tuzilishi hamda 2 va 4 taktli dvigatellar ishchi sikllari, moylash tizimini tuzilishi, hamda ishlashi.....	527

**JISMONIY MADANIYAT TA'LIMI SOHASIDAGI MUTAXASSISLAR TAYYORLASH  
TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA AKMEOLOGIK  
MOTIVATSIYANI RIVOJLANTIRISHNING O'RNI VA AHAMIYATI**

**РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ РАЗВИТИЯ АКМЕОЛОГИЧЕСКОЙ МОТИВАЦИИ НА ОСНОВЕ  
АКСИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ СИСТЕМЫ ПОДГОТОВКИ  
СПЕЦИАЛИСТОВ В ОБЛАСТИ ФИЗКУЛЬТУРНОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

**THE ROLE AND IMPORTANCE OF THE DEVELOPMENT OF ACMEOLOGICAL  
MOTIVATION ON THE BASIS OF AN AXIOLOGICAL APPROACH TO IMPROVING THE  
SYSTEM OF TRAINING OF SPECIALISTS IN THE FIELD OF PHYSICAL CULTURE  
EDUCATION**

**Parmonov Akmal Abdupattayevich<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Qo'qon davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya**

*Oliy ta'limdagi o'quv jarayoni chuqur bilim, kasbiy ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan va ularni amalda qo'llay oladigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash vazifasini birinchi o'ringa qo'yadi. Ammo bizning davrimizda jamiyat tomonidan to'plangan tajribadan foydalanish qobiliyati, ijodiy, muammolarni hal qilish qobiliyati muhimroq bo'lishi kerak. Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha bo'lajak mutaxassislar jamiyatimiz muammolariga befarq bo'lmasligi, ular yuqori kasbiy va axloqiy fazilatlarga ega bo'lishi kerak. Bundan tashqari, shuni ta'kidlash kerakki, bo'lajak mutaxassis shaxsini kasbiy va ijodiy rivojlantirish oliy ta'limning asosiy maqsadiga aylanadi. Bularning barchasi jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashga to'liq taalluqlidir. Bugungi kunda nafaqat shaxsning umumiy intellektual va kasbiy ijodiy faoliyatiga, balki yangi, fikrlashga ham keskin jamoatchilik talabi mavjud. Shuning uchun ta'limning asosiy yo'nalishi shaxsiy rivojlanish bo'lishi kerak.*

**Аннотация**

*Учебный процесс в высшем образовании ставит перед собой задачу подготовки высококвалифицированных специалистов, обладающих глубокими знаниями, профессиональными навыками и умениями и способных применить их на практике. Но в наше время важнее должна быть способность использовать накопленный обществом опыт, способность к творчеству, решению проблем. Будущие специалисты по физической культуре и спорту не должны быть равнодушны к проблемам нашего общества, они должны обладать высокими профессиональными и нравственными качествами. Кроме того, следует отметить, что профессионально-творческое развитие личности будущего специалиста становится главной целью высшего образования. Все это в полной мере относится к подготовке специалистов по физической культуре и спорту. Сегодня существует острый общественный спрос не только на общую интеллектуальную и профессиональную творческую деятельность личности, но и на новое, новое мышление. Поэтому основным направлением обучения должно быть личностное развитие.*

**Abstract**

*The educational process in higher education sets itself the task of training highly qualified specialists with deep knowledge, professional skills and abilities and able to apply them in practice. But in our time, the ability to use the accumulated experience of society, the ability to create, and solve problems should be more important. Future specialists in physical culture and sports should not be indifferent to the problems of our society, they should have high professional and moral qualities. In addition, it should be noted that the professional and creative development of the personality of a future specialist becomes the main goal of higher education. All this fully applies to the training of specialists in physical culture and sports. Today, there is an acute public demand not only for the general intellectual and professional creative activity of the individual, but also for new, new thinking. Therefore, the main focus of training should be personal development.*

**Kalit so'zlar:** intellektual salohiyat, jismoniy faoliyat, aksiologik yondashuv, innovation-motivasion yondashuv, individual faoliyat, innovation faoliyat, prinsipial qarama – qarshilik, kasbiy faoliyat.

**Ключевые слова:** интеллектуальный потенциал, физическая активность, аксиологический подход, инновационно-мотивационный подход, индивидуальная активность, инновационная деятельность, принципиальное противоречие, профессиональная деятельность.

**Key words:** intellectual potential, physical activity, axiological approach, innovative-motivational approach, individual activity, innovative activity, principled opposition, professional activity.

**KIRISH**

Jahonda ilg'or fikrli, intellektual salohiyatli, bilimli, jahon standartlariga javob beradigan professional yetuk kadrlarni tayyorlash dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Ayniqsa axloqan pok, intellektual yetuk, yuksak professional mutaxassis – akmeshaxsni shakllantirish va bu orqali ijtimoiy taraqqiyotga, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishish ustuvorlik kasb etmoqda. Shu bois bugungi zamonaviy pedagogikada bo'lajak mutaxassislarda akmeologik motivatsiyani rivojlantirish, ularda yuksak marralarga erishish motivlarini yuzaga chiqarish va o'z-o'zini shakllantirish, yuksaltirishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini yaratish zarurati yuzaga chiqmoqda.

Dunyoning ilg'or ilmiy tadqiqot institutlari va xalqaro markazlarida bo'lajak kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, ularga professional kasbiy faoliyatni yo'lga qo'yish va muvafaqiyatga erishishlari uchun zarur bilim va ko'nikmalarni berish, qobiliyati, bilimi, malakasi, kasb layoqati va sa'y-harakatidan oqilona foydalanishning innovasion tizimini yaratishga doir bir qancha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu orqali bo'lajak kadrlarda akmeologik motivlarni rivojlantirish, eng yuksak maqsadlar asosida yuqori cho'qqilarni zapt etishlariga motivatsiya berish metodikasini yaratishga doir ilmiy loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu orqali bo'lajak pedagoglarni ham o'z kasbiy faoliyatida yuksak natijalarga erishish, kasbiy, shaxsiy va fuqaroviy pozitsiyada ham liderlikni to'la namoyon qilish shart-sharoitlarini yaratishning nazariy asoslari tizimlashtirilmoqda.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasida "jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish dolzarb vazifa" sifatida belgilanishi ham mamlakatimizda bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlash tizimini takomillashtirish zaruratini asoslaydi. Bu borada jismoniy ta'limni innovasion asoslarini takomillashtirish, unga yangicha yondashuvlarni olib kirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Bu borada bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlashda aksiologik yondashuvdan oqilona foydalanish, jismoniy ta'limga va sog'lomlashtirish jarayoniga qadriyatli munosabatni shakllantirish yuqori smaradorlikka ega ekanligi namoyon bo'lmoqda. Shuningdek, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida mazkur yondashuv asosida akmeologik motivatsiyani rivojlantirish, ularga innovatsion-motivatsion yondashuvlar asosida ta'sir o'tkazish ehtiyoji ham ortib bormoqda.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Mavjud ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish natijalari guvohlik berishicha, so'ngi yillarda turli xil darajada jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lgan talabalarning son ortmoqda. Ko'pgina talabalar standart o'quv dasturlarida nazarda tutilgan yuklamalarni bajarishga to'liq holatda tayyor emasligi ma'lum bo'lmoqda. Bu ko'rinishdagi talabalar tomonidan mashg'ulotlar rejimlari (berilgan yosh guruhlari uchun fiziologik jihatdan asoslangan standartlarga muvofiq) doirasida tuzib chiqilgan o'quv mashg'ulotlari dasturlarini bajarish qiyin amalga oshiriladi. Bu holat sezilarli sondagi talabalarning jismoniy tayyorgarligi va ular tomonidan bajariluvchi normativ testlar o'rtasidagi nomuvofiqlik bilan bog'liq hisoblanadi. "Ko'pgina talabalarda jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga nisbatan zaruriy motivatsiya mavjud emasligi vaziyatni yanada chuqurlashtiradi. Bunday talabalarda ko'pgina xolatlarda amaliy mashg'ulotlarda nafaol holatda ishtirok etish, elementar mashqlarni bajarish holatida bo'lmaslik, jismoniy yuklamalardan qochish, shuningdek organizmning barcha tizimlarini optimal darajada funktsiya bajarishi uchun talab qilinuvchi natijaga erishishda qat'iylik namoyon bo'lmasligi kuzatiladi. Bunday talabalarning jismoniy faoliyatini faollashtirish muhim masala sifatida qolmoqda. Bu talabalarni o'qitish jarayoni uslubiyati va uni tashkil qilish o'ziga xos xususiyatlarga ega hisoblanadi. Bu holat turli xil darajada jismoniy jixatdan rivojlanish va jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lgan talabalarga harakatlarga oid holatlarni o'rgatishda yangi uslubiyotni ishlab chiqish talab qilinishiga olib keladi. Keyingi yillarda ta'lim tizimiga yangi innovatsion jarayonlarni keng tadbir etilishi kuzatilmoqda. Shu bilan birga innovatsiyalar ta'lim jarayonidagi tashabbuslarning jamlanishida va yangiliklarni kiritilishida ifodalanmoqda hamda ular birgalikda katta yoki kichik global o'zgarishlarga olib kelmoqdalar. Bir qator tadqiqotlarda oliy ta'lim muassasalarida jismoniy madaniyat va sport fanlarini o'qitishda, mashg'ulotlar jarayoniga yangi innovatsion, texnologik vositalarni qo'llab o'quv mashg'ulotlarini olib borishga yetarlicha e'tibor berilmayotganligi aniqlangan. O'qituvchi tayyorlashning namunaviy tizimi va uning individual, ijodiy faoliyati o'rtasida prinsipial qarama – qarshilik vujudga kelmoqda". Jismoniy madaniyat ta'limi sohasidagi mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirishda talabalarning kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarni egallash yo'lidagi ortib boruvchi faolligini taklif etadigan va rag'batlantiradigan o'quv jarayonini tashkil etishda yangi usul va yondashuvlar ishlab chiqish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Respublikamizda ta'limning yangi paradigmalarga o'tishi nafaqat talabalarning o'zini o'zi natijaviy rivojlantirishga innovatsion yondashuvlarni, balki ushbu jarayonning metodologik asoslarini takomillashtirishni taqozo qilmoqda. Jumladan, "Jamiyatimizda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talabalariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish,

shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda”

### NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilari kasbiy muloqotni bilishi, jismonan va ma'nan tarbiyalanganligi, kelajakda o'quvchilarni sportga jalb qilish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur. Sport va estetika, sport va axloq, sport va muloqot, sport va madaniyat, sport madaniyati va shaxsning rivojlanishi – amaliyotda pedagogik madaniyat – bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchisi muloqotini anglab olish, tushunib yetish va integratsiyasi bir-birini to'ldirib boradigan va ajralmas tushunchalardir. Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchisini shakllantirish jarayonida sportdagi go'zallik, ya'ni uning o'z ko'rkamligi, gavdalanishi, pedagogik faoliyatida yuksak zavq-shavq uyg'otishi, chuqur taassurotlar qoldirishi va unutilmas hissiyotlarni junbishga keltirishi, ayniqsa, muhim.

Pedagog olimlar Sh.Abdullayeva va E.Xurramovlar fikricha, “jismoniy tarbiya darslarida o'qituvchi har tomonlama yetuk: chiniqqan, sof fikrli, mard, sabotli, qat'iyatli, kelajakda Vatanni himoya qila oladigan shaxslarni kamol toptirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi [1]. Shu nuqtai nazardan, bo'lg'usi jismoniy tarbiya o'qituvchilarining faoliyatini innovasion tashkil qilish, ta'lim-tarbiya mazmunini yangilash va boyitish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayonini rivojlantirish bilan birgalikda hozirgi kun talablari oldida turgan dolzarb masala – bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini nazariy va amaliy jihatdan innovasion faoliyatga tayyorlash, yosh avlodni jismonan tarbiyalashda samaradorlikka erishishdir. Zero, faqat jismonan barkamol, sog'lom shaxsgina o'zining intellektual, ma'naviy imkoniyatlarini to'laqonli namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ladi”. Shunday ekan, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlash tizimini takomillashtirish, ularni innovasion faoliyatga yo'nlitirish ustuvor vazifalardan biri bo'lib qoladi.

Shu ma'noda mamlakatimizda jismoniy tarbiya tizimining tarixiy tajribalarini qiyosiy-tahliliy o'rganish, amaliy tajribalarini tanqidiy mushohada qilish asosida umumlashtirish, jismoniy tarbiya o'qituvchilarining innovatsion faoliyatini to'g'ri tashkil qilish, uning istiqbolli strategiyasini aniqlash imkonini beradi. Buning uchun maqsadli pedagogik tadqiqotlarni amalga oshirish zarurati kelib chiqadi. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilariga jismoniy tarbiya mazmunini ilmiy asosda o'rgatish, uning tashkiliy va texnologik asoslarini modernizatsiyalash, kelajakda rivojlanish tendensiyalarini ishlab chiqish pedagogika fani oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Bunda innovasion faoliyatning maqsadi jamiyat tomonidan belgilanishi hamda uning natijasi jamiyat manfaatları bilan bog'liqligi, yoshlarni ijtimoiy munosabatlar tomon yo'llashi, ijtimoiy tajriba orttirish uchun insondagi tabiiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarishga zamin yaratadi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisining innovasion faoliyati – ijodiy yondashuv, ijodiy faollik, yangilikni kiritishga texnologik va metodologik tayyorgarlik, yangicha fikrlash, muomala madaniyatida namoyon bo'ladi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchilarini innovasion faoliyatga tayyorlashda quyidagi yo'nalishlar inobatga olinadi:

- yangilikni idrok qilishga innovasion tayyorgarlik;
- bo'lg'usi jismoniy tarbiya o'qituvchilarining Davlat ta'lim standartlari (DTS)da ko'rsatilgan o'quvchilarning egallashi lozim bo'lgan minimal talablarni ularda shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyatga ijodiy yondashishga o'rgatish;
- ijodkorlikka asoslangan faoliyatni tashkil qilish.

Innovatsiya jarayonlari, ularning funksiyalari, rivojlanish qonuniyatlari, mexanizmlari va uni amalga oshirish texnologiyalari, boshqarish tamoyillarining pedagogik asoslarini o'rganish – o'qituvchi faoliyatini jahon andozalariga mos holatda tashkil etishga imkon tug'diradi. Bunda jismoniy tarbiya o'qituvchisi innovasion faoliyati yangilik kiritishning samarasini belgilovchi muayyan me'yorlardan foydalanishni talab qiladi. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisini innovatsion faoliyatga tayyorlash quyidagicha kechadi: mo'ljallangan yangilikni yalpi va uning alohida bosqichlari muvaffaqiyatini bashorat qilish; yangilikni boshqa innovatsiyalar bilan qiyoslash [2], ulardan samaradorini tanlab olish, ularning eng ahamiyatli va aniqlik darajasini aniqlash; yangilikni tatbiq etishning muvaffaqiyatlilik darajasini tekshirish; yangilikni tatbiq etadigan tashkilotning innovasion qobiliyatiga baho berish.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarni innovasion faoliyatga tayyorlashda quyidagi asosiy funksiyalar amalga oshiriladi:

- bo'lajak kasbiy faoliyatga ongli yondashuv tahlili;
- me'yorlarga nisbatan tanqidiy yondashuv;
- kasbiy yangiliklarga nisbatan ishtiyoqmandlik;
- ijodkorlikni shakllantirish;

– o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, sog'lom turmush tarzi va intilishlarini kasbiy faoliyatida mujassam etish. Demak, jismoniy tarbiya o'qituvchisi innovasion faoliyatda yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ'ibotchisi sifatida namoyon bo'ladi. Bo'lg'usi jismoniy tarbiya o'qituvchisini innovasion faoliyatga tayyorlashda muayyan me'yorlardan foydalanish talab qilinadi. Bunday me'yorlar yangilik, maqbullik, yuqori natijalilik, ommaviy tajribalarda innovatsiyani ijodiy qo'llash imkoniyatlarini qamrab oladi.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisi, ya'ni bugungi kun talabalarini innovasion faoliyatga tayyorlashda quyidagi jihatlarga e'tiborni qaratishi lozim:

- bakalavriatura bosqichida tahsil olayotgan talabalarni ijodiy-motivasion yo'naltirish, ya'ni ularning ijodiy qiziqishi, muayyan yutuqlarga intilishi inobatga olinishi zarur;
- kreativlik fazilatlarini tarkib toptirish, ya'ni ularning tanqidiy fikrlashi, baho bera olish qobiliyati, mushohada yuritish, refleksiya moyilligini o'stirish;
- o'z kasbiy faoliyatini baholashga o'rgatish, ya'ni ijodiy faoliyat metodologiyasini egallash, ziddiyatni ijodiy bartaraf qilish qobiliyati; ijodiy faoliyatda hamkorlik va o'zaro yordam berish qobiliyatini shakllantirish va boshqalar;
- talabalarda qat'iyatlilik, mas'uliyatlilik, halollik, haqiqatgo'ylik, o'zini tuta bilish va boshqa sifatlarni rivojlantirish.

O'qituvchining innovasion faoliyatni samarali amalga oshirishi bir qator shartsharoitlarga bog'liq. Bunda o'qituvchining turli holatlarda rasional vaziyatni o'z bilim va ilmiy faoliyati orqali amalga oshira olishi, o'z-o'zini faollashtirishi, o'z ijodkorligi, yaratuvchiligi muhim ahamiyat kasb etadi, o'qituvchi shaxsining kreativligini shakllantirish imkoniyatini beradi [3]. Bo'lg'usi jismoniy tarbiya o'qituvchisini innovasion faoliyatga tayyorlashda pedagogik jamoaning o'rni katta ahamiyat kasb etadi. Ta'lim sifatini oshirish jamiyatning barcha jabhalarida hayotni yaxshilashga olib keladi. Yangilik kiritish ta'lim sifatini oshirishning samarali vositasi bo'lganligi uchun ham rivojlangan davlatlar ta'lim jarayoniga uzluksiz yangilik kiritishga harakat qiladilar. Ko'pgina mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, innovasion jarayonlarda ta'lim tizimidagi barcha bo'g'inlar ishtirok etishi lozim. Ammo innovasion jarayonlar yuqoridan pastga qarab harakatlansa va bunda o'qituvchi bo'ysunuvchi, ya'ni yangilikning faqat iste'molchisi bo'lib qolsa, u holda bu jarayon byurokratik tus oladi.

Bo'lg'usi jismoniy tarbiya o'qituvchisini innovasion faoliyatga tayyorlashda ta'limni insonparvarlashtirish, individuallashtirish, uning samaradorligini oshirish maqsadga muvofiqdir. Bunda ta'limning insonparvarlashuvi shaxsning turli ta'lim xizmatlariga bo'lgan ehtiyojining qondirilishi va ta'lim jarayonida inson qobiliyatining namoyon bo'lishini anglatadi [4]. Ta'limni individuallashtirish har bir ta'lim oluvchining individual reja va ta'lim dasturlariga ega ekanligini ifoda etadi. Ta'limning samaradorligi guruhda individual shakldagi auditoriya mashg'ulotlari va ta'lim oluvchining mustaqil ishlarini uyg'unlashtirish orqali ta'minlanadi. Auditoriya o'quv vaqtining 70 foizigacha qismini individual o'qitishga, shuningdek, umumiy o'quv vaqtining 70 foizigacha qismining mustaqil ishga ajratilishi o'quv fanlarining tahsil oluvchilar tomonidan o'z qobiliyatlari darajasida o'zlashtirishlariga imkon yaratadi, ta'lim sifatini oshiradi. Shunday qilib, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisini innovasion faoliyatga tayyorlashda uzluksiz ta'lim tizimida sog'lom ijodiy muhitni yaratish, o'qitish sifatini yangi bosqichga ko'tarish, tahsil oluvchilarning dunyoqarashi, tafakkuri, mustaqil mushohada qilish qobiliyatlarini rivojlantirish katta ahamiyat kasb etadi. Innovatsiyalarga tayangan holda o'qituvchilar uchun yangilik hisoblanmish texnologiyalar orqali diqqatni jamlash, erkin mushohada yuritish, ishonchli qaror qabul qilishga erishiladi. Innovasion texnologiyalar o'quv jarayonining majmuaviy vazifalarini yechishga yo'naltirilgan bo'lib, o'qituvchi va tahsil oluvchilarning birgalikdagi faoliyatini ifoda etadi. Ular bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Bunda muayyan metod, usul va vositalar asosida samarali boshqarish tizimi maqsadga

yo'naltiriladi. Kafolatlangan natija – jismoniy tarbiya hamda jismoniy va ma'naviy yetuklik masalasini ijobiy hal qilishga erishiladi.

Xulosa qilganda, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda ta'limdagi motivatsion yondashuvning o'rni yuqori hisoblanadi va samaradorligi baland bo'ladi. Chunki motivatsion yondashuv talabalarning kasbiy faoliyatiga ehtiyoj va qiziqishlari asosida motivatsion munosabatni shakllantirish orqali ularni yo'naltirib boradi. Bu esa, bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy muvaffaqiyatga erishish, kasbiy bilim va ko'nikmalarni egallash va ularni takomillashtirib borish istagini kuchaytirib yuboradi [5]. Shu jumladan, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini ham motivatsion yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash o'zining samaradorligini ko'rsatadi.

#### **XULOSA**

Motivatsiya shaxs xatti-harakatining ichki regulyatsiyasi funksiyasini bajarib, ehtiyojini qondirish, xohish-istak, ezgu niyat, orzu-tilak, mayl, his-tuyg'u, ustanovka, ideal, imon-e'tiqod, vijdon, maqsad qo'ya olish va boshqalarni amaliyotda ro'yobga chiqarishning bosh omili hisoblanishi kelib chiqadi.

Akmeologik motivatsiya bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining ijtimoiy-kasbiy to'siqlarni yengib o'tish va yuqori natijaga erishishda o'zini - o'zi namoyon etishi, atrofdagilar bilan musobaqalashishi, o'z qobiliyatlarini muvaffaqiyatli qo'llashi bilan o'z-o'ziga bo'lgan hurmatni oshirishiga olib keladi.

Akmeologik motivatsiya asosida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari tezlik, chaqqonlik, chidamlilik tarbiyalanadi, ularning sog'ligi mustahkamlanadi, ish qobiliyatlari, aqliy faolligi oshadi, halollik, qat'iylilik, mustaqillik kabi axloqiy xulq me'yorlari tarkib topadi, yetuklik sari qadam tashlanadi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisining innovasion faoliyati – ijodiy yondashuv, ijodiy faollik, yangilikni kiritishga texnologik va metodologik tayyorgarlik, yangicha fikrlash, muomala madaniyatida namoyon bo'ladi.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarni innovasion faoliyatga tayyorlashda kasbiy faoliyatga ongli yondashuv tahlili, me'yorlarga nisbatan tanqidiy yondashuv, kasbiy yangiliklarga nisbatan ishtiyiqmandlik, ijodkorlikni shakllantirish muhimligi kelib chiqadi.

Akmeologik motivatsiya mavjud har qanday qiyinchilik yoki muammolardan bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining o'zi mustaqil ravishda chiqib keta olishi, unda jismoniy-sog'lomlashtiruvchi sifatlar shunday rivojlansinki, hatto o'zi mustaqil ravishda professional mutaxasis sifatida faoliyat yurita olishini ta'minlash hisoblanadi.

Ijtimoiy-psixologiyaning turli tarmoqlarida shaxsni individual psixologik xususiyatlari borasida turli yondoshuvlar mavjud. Xususan, taraqqiyot psixologiyasining "psixo-akmeologiya" yo'nalishi tarafdorlarining bu masalaga o'zigagina xos bo'lgan individual psixologik xususiyatlar ya'ni, "immanent" belgilari asosidagi yondoshmoqdalar.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –Toshkent.: O'zbekiston. 2018. –B. 40.
2. «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. –Toshkent, O'zbekiston, 1997.
3. Abdullayeva Sh.A., Xurramov E.E. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini innovasion faoliyatga tayyorlash. Zamonaviy ta'lim jurnali. 2016. №5. –B. 17.
4. Алексеева Л.Ф. Проблема активности личности в психологии. Авто...реф. дисс..д.пс.наук. Новосибирск.1997
5. Андреев В.И. Педагогика творческого саморазвития. – Казан: КГУ, 1996. - 567 с.